

MEHNAT QONUNCHILIGIDA XIZMAT TEKSHIRUVINING JORIY ETILISHI

Isakova Shoxsanam Nuriddin qizi

Fargʻona viloyati yuridik texnikumi “Sud-huquqiy faoliyat” yoʻnalishi
1-bosqich 32-guruh oʻquvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada yangi tahrirda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida oʻz aksini topgan xizmat tekshiruvining joriy etilishi, tushunchasi, uni amalga oshirish tartib qoidalari, ish beruvchi, komissiya hamda oʻziga nisbatan xizmat tekshiruvini oʻtkazilayotgan xodimlarning huquq va majburiyatlari, xizmat tekshiruvining oʻtkazish muddati, oʻtkazilgan xizmat tekshiruvini natijalarini rasmiylashtirilishi bilan bogʻliq masalalar yuzasidan qisqacha fikr yuritilgan.

Kalit soʻzlar: Mehnat kodeksi, ish beruvchi, xodim, aybli xatti-harakat, xizmat tekshiruvini, komissiya, dalolatnoma.

Аннотация:

в данной статье кратко рассмотрены вопросы, связанные с введением служебной проверки, понятие, порядок ее проведения, права и обязанности работодателя, комиссии и работников, в отношении которых проводится служебная проверка, сроки проведения служебной проверки, оформление результатов служебной проверки, отраженные в Трудовом кодексе Республики Узбекистан, принятом в новой редакции.

Ключевые понятия: Трудовой кодекс, работодатель, работник, виновное поведение, служебная проверка, комиссия, акт.

Abstract:

This article briefly discusses issues related to the introduction of internal audit, the concept, the procedure for its conduct, the rights and obligations of the employer, the commission and employees in respect of whom an internal audit is conducted, the timing of the internal audit, the registration of the results of the internal audit, reflected in the Labor Code of the Republic of Uzbekistan, adopted in a new edition.

Key concepts: Labor Code, employer, employee, culpable behavior, internal audit, commission, act.

Yurtimizda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ichida yangi tahrirda O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining qabul qilinishi alohida ta’kidlash o‘rinlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega ekanligi konstitutsion norma sifatida mustahkamlab qo‘yildi.¹

Yuqoridagi konstitutsion normalardan kelib chiqib, ushbu kodeks xodimlarning huquqlari va erkinliklarining, shu jumladan mehnat qilishga, erkin ish tanlashga, adolatli va xavfsiz mehnat sharoitlariga hamda ishsizlikdan himoyalanishga bo‘lgan huquqlarining davlat tomonidan kafolatlanishiga xizmat qiladi.

Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning jadal sur‘atlarda rivojlanib borishi, tabiiyki, eski tahrirdagi Mehnat kodeksining bugungi kun talabiga javob berolmay qolganligini ko‘rsatdi hamda xodimlarning huquq va erkinliklarini to‘liq ta’minlashda o‘ziga yarasha qiyinchiliklar tug‘dirishni boshladi. Jumladan, avvalgi Mehnat kodeksida xodimning aybli xatti-harakat qilgan yoki qilmaganligini aniqlash, xodim tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlikning sabab va sharoitlari aniqlab, mazkur kamchiliklarni bartaraf qilish mexanizmining huquqiy asoslari ko‘rsatib berilmagan edi.

2023 yilning 30 aprel kuni yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining kuchga kirishi bilan bunday muammolar o‘zining huquqiy yechimini topdi, ya’ni yangi Mehnat kodeksi bilan xizmat tekshiruvi instituti joriy etildi va uni o‘tkazish tartibi belgilandi, bu esa o‘z navbatida ish beruvchilar tomonidan xodimlarga nisbatan asossiz ravishda intizomiy javobgarlik qo‘llanilishini oldini oladi.

Mehnati kodeksining 302-moddasida birinchi marta xizmat tekshiruvi tushunchasi o‘z ifodasini topdi. Ushbu moddaga asosan xizmat tekshiruvi deganda xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilganligi faktini, uning sodir etilishida

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.

xodimning aybini, xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni, ish beruvchiga yetkazilishi mumkin bo'lgan moddiy zararining xususiyati va miqdorini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan tekshirish² tushuniladi.

Bu borada amaliyot xodimlarining fikrlariga ham e'tibor qaratish o'rinli bo'lar edi. Jumladan, ish beruvchining tashabbusi bilan xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari jumlasiga, xodim tomonidan bir marta qo'pol ravishda buzish va xodim tomonidan o'z mehnat majburiyatlarini muntazam buzib kelganlik holatlari kiradi. Ushbu asoslar bo'yicha aksariyat hollarda ish beruvchi tomonidan xodim aybli xatti-harakat qilgan yoki qilmaganligini aniqlamasdan xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish holatlari uchray kelgan.³

Demak, qonunchilikka muvofiq xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish uchun ommaviy axborot vositalarining xabarlari, xodimning bevosita rahbarining bildirgisi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilgan deb taxmin qilish uchun asos beradigan boshqa ma'lumotlar asos bo'ladi.

Ish beruvchi xizmat tekshiruvi o'tkazish haqida qaror qabul qilishga haqli bo'lib, o'z navbatida xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi qaror tegishli buyruq bilan rasmiylashtiriladi.

Xizmat tekshiruvi o'tkazish uchun ish beruvchining buyrug'i bilan xizmat tekshiruvi o'tkazish bo'yicha komissiya tuziladi. Qonunga ko'ra komissiya kamida uch nafar a'zodan iborat bo'lishi kerak va ularning bir nafari komissiyaning raisi bo'ladi. Komissiya tarkibiga agar korxona, muassasa va tashkilotda mavjud bo'lsa, kasaba uyushmasi qo'mitasining a'zosi ham kiritiladi.

Shu o'rinda e'tirof etish kerakki, komissiya tarkibiga:

- xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilgan mansabdor shaxs;
- harakatlari tekshirilishi zarur bo'lgan xodimlar bo'ysunuvidagi xodimlar;
- o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodim bilan qarindoshlik aloqalarida bo'lgan shaxslar;
- xizmat tekshiruvi natijalaridan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar, shu jumladan xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilishiga

² O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 28 oktyabr 2022- yil. <https://lex.uz/uz/docs/6257288>.

³ G'. Matyaqubov. Mehnat qonunchiligida xizmat tekshiruvi va uni o'tkazish tartibi. Fuqarolik ishlari bo'yicha Urganch tumanlararo sudi sudyasi. <https://xorazmnoma.uz/?p=2153>



yoki intizomiy qilmishning yashirilishiga daxldor ekanligi to'g'risida asoslangan gumonlar mavjud bo'lgan shaxslar;

- murojaati xizmat tekshiruvi o'tkazilishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan shaxslar;
- o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodimlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Xizmat tekshiruvini o'tkazishga maxsus bilimlar sohasida maslahat olish uchun shartnoma asosida ekspertlar sifatida mutaxassislar ham jalb etilishi mumkin.

Mehnat kodeksining 305-moddasida xizmat tekshiruvi o'tkazuvchi komissiyaning huquq va majburiyatlari, 306-moddasida esa o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodimning huquq va majburiyatlari o'z ifodasini topgan.

Xizmat tekshiruvini o'tkazish muddati o'n besh ish kunidan oshmasligi kerak. Agarda xizmat tekshiruvini belgilangan muddatda, obyektiv sabablarga ko'ra tugatish mumkin bo'lmagan alohida holatlarda, ish beruvchi komissiyaning asoslantirilgan vajlari asosida xizmat tekshiruvini o'tkazish muddatini yana o'n besh ish kunigacha uzaytirishga haqlidir.

Xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risidagi dalolatnoma tegishli qarorni qabul qilish uchun ovoz bergan komissiya a'zolari tomonidan imzolanishi kerak. Xizmat tekshiruvining natijalari haqidagi qarordan rozi bo'lmagan komissiya a'zosi xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risidagi dalolatnomaga ilova qilinadigan o'zining alohida fikrini yozma shaklda bayon etishga haqlidir.

Mehnat Kodeksda nazarda tutilgan xizmat tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi qoidalar ichki mehnat tartibi qoidalarida, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda qabul qilinadigan xizmat tekshiruvini o'tkazish tartibi haqidagi ichki hujjatlarda tarmoqning xususiyati, ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari, xodimlar bajarayotgan mehnat vazifalarining tavsifi inobatga olingan holda aniqlashtirilishi mumkin.

Aytish lozimki, xizmat tekshiruvi mehnat munosabatlaridagi huquqiy mexanizm sifatida ish beruvchi va xodimning manfaatlari uchun xizmat qiladi va haqiqatni aniqlashga, intizomiy huquqbuzarlikning kelib chiqish sabab va sharoitlarni bartaraf etishga, asossiz ravishda xodimga nisbatan intizomiy jazo qo'llanilishini oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2023-y.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 28 oktyabr 2022-yil.
<https://lex.uz/uz/docs/6257288>.
3. G'. Matyaqubov. Mehnat qonunchiligida xizmat tekshiruvi va uni o'tkazish tartibi. Fuqarolik ishlari bo'yicha Urganch tumanlararo sudi sudyasi.
<https://xorazmnoma.uz/?p=2153>.
4. A. Risqullayev. Mehnat to'g'risidagi lokal hujjatlar.
https://www.norma.uz/uz/kompaniya_yangiliklari/mehnat_tugrisidagi_lokal_hujjatlar.

